
Qo'shtepa tumani sport bo'limi: "BIZ SOG'LOM TURMUSH TARZI TARAFDORIMIZ" shiori ostida o'tkazilgan musobaqa jarayonlari

26 iyun - "Xalqaro giyoxvandlikka qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan, "BIZ SOG'LOM TURMUSH TARZI TARAFDORIMIZ" shiori ostida Qo'shtepa tumani Sport bo'limi, Xotin-qizlar qo'mitasi va Maktabgacha ta'lim bo'limi xamkorligida, 2019 yil 26 iyun kuni Qo'shtepa tumani Bolalar-o'smirlar sport maktabida, maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o'rtasida sportning voleybol, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Musobaqaga tumanda mavjud bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalaridan ja'mi 18 ta jamoadan 210 nafar ayollar ishtirok etdilar.

Stol tennisi bo'yicha:

1-o'rinni 23-maktabgacha ta'lim muassasasi xodimi Sultonova Zulayxo.

2-o'rinni 2-maktabgacha ta'lim muassasasi xodimi Kimsanova Nilufar

3-o'rinni 10-maktabgacha ta'lim muassasasi Raxmiddinova Jannatoy egalladilar.

Voleybol bo'yicha:

1-o'rinni 35-maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi.

2-o'rinni 32-maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi

3-o'rinni 2-maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasi egalladilar.

Musobaqa g'oliblari Sport bo'limi va Kasaba uyushmasi Qo'shtepa tumani bo'limining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirladilar.











































2019-06-26 18:13:44